

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

O'ZBEK VA INGLIZ ERTAKLARIDA IJOBIY QADRIYAT KONSEPTLARINING AKSIOLOGIK OPPOZITSİYALAR ORQALI IFODALANISHI

Muydinova Nigoraxon Rafiqjon qizi

Farg'ona viloyati Furkat tumani 18-maktab, o'qituvchi.

e-mail: muydinovanigoraxon82@gmail.com **ORCID:** <https://orcid.org/0009-0009-1380-7616>

Annotatsiya.

Mazkur tadqiqotda o'zbek va ingliz xalq ertaklarida ijobiy qadriyat konseptlarining aksiologik oppozitsiyalar asosida ifodalanish xususiyatlari qiyosiy-lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinadi. Ertak matnlarida yaxshilik-yomonlik, halollik-nopoklik, mehnatsevarlik-dangasalik, saxiylik-xasislik, mardlik-qo'rqqoqlik, adolat-adolatsizlik hamda sadoqat-xiyonat kabi qarama-qarshi qadriyatlar tizimining badiiy va konseptual namoyon bo'lish shakllari o'rganiladi. Ijobiy qadriyatlarining ertak qahramonlari xarakteri, xatti-harakati, nutqi, sinovlardan o'tishi va yakuniy mukofotlanishi orqali shakllantirilishi aniqlanadi. Shuningdek, salbiy obrazlarning jazolanishi vositasida xalqning axloqiy me'yorlari va ideal inson haqidagi tasavvurlari mustahkamlanishi yoritiladi. Qiyosiy tahlil o'zbek ertaklarida jamoaviylik, kattalarga hurmat, sabr-toqat, mehnatsevarlik va oilaviy sadoqat ustuvorligini, ingliz ertaklarida esa shaxsiy tashabbus, jasorat, topqirlik, adolat va mustaqillik qadriyatlari faolroq ifodalanishini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari ertaklarning milliy aksiologik manzarani aks ettiruvchi, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim lingvomadaniy manba ekanligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: ertak, qadriyat konsepti, aksiologik oppozitsiya, yaxshilik va yomonlik, lingvokulturologiya, milliy mentalitet, axloqiy ideal, o'zbek ertaklari, ingliz ertaklari, qiyosiy tahlil.

ВЫРАЖЕНИЕ КОНЦЕПТОВ ПОЛОЖИТЕЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ ПОСРЕДСТВОМ АКСИОЛОГИЧЕСКИХ ОППОЗИЦИЙ В УЗБЕКСКИХ И АНГЛИЙСКИХ СКАЗКАХ

Муйдинова Нигоракхон Рафиқжон кизи

Школа № 18 Фуркатского района Ферганской области,

Аннотация.

В данном исследовании в сравнительно-лингвокультурологическом аспекте анализируются особенности выражения концептов положительных ценностей посредством аксиологических оппозиций в узбекских и английских народных сказках. Рассматриваются художественные и концептуальные формы репрезентации таких противопоставлений, как добро и зло, честность и нечестность, трудолюбие и лень, щедрость и скупость, храбрость и трусость, справедливость и несправедливость, верность и предательство. Установлено, что положительные ценности раскрываются через характер, поступки и речь сказочных героев, прохождение ими различных испытаний и получение заслуженной награды. Наказание отрицательных персонажей, в свою очередь, способствует утверждению нравственных норм народа и его представлений об идеальной личности. Сравнительный анализ показывает, что в узбекских сказках особое значение приобретают коллективизм, уважение к старшим, терпение, трудолюбие и преданность семье, тогда как в английских сказках более активно представлены личная инициатива, смелость, находчивость, справедливость и самостоятельность. Результаты исследования подтверждают, что народные сказки являются важным лингвокультурным источником, отражающим национальную аксиологическую картину мира и формирующим нравственное мировоззрение молодого поколения.

Ключевые слова: сказка, концепт ценности, аксиологическая оппозиция, добро и зло, лингвокультурология, национальный менталитет, нравственный идеал, узбекские сказки, английские сказки, сравнительный анализ.

THE REPRESENTATION OF POSITIVE VALUE CONCEPTS THROUGH AXIOLOGICAL OPPOSITIONS IN UZBEK AND ENGLISH FAIRY TALES

Muydinova Nigoraxon Rafiqjon qizi

Secondary School No. 18, Furkat District, Fergana Region, Teacher.

Abstract.

This study provides a comparative linguocultural analysis of the representation of positive value concepts through axiological oppositions in Uzbek and English folk tales. It examines the artistic and conceptual manifestations of such binary oppositions as good and evil, honesty and dishonesty, diligence and laziness, generosity and greed, courage and cowardice, justice and injustice, as well as loyalty and betrayal. The analysis demonstrates that positive values are represented through the characters' personal qualities, behaviour, speech, successful completion of trials and eventual reward. Conversely, the punishment of negative characters reinforces culturally accepted moral norms and collective perceptions of an ideal individual. The comparative findings indicate that Uzbek fairy tales predominantly emphasize collectivism, respect for elders, patience, diligence and devotion to family, whereas English fairy tales more actively foreground personal initiative, courage, resourcefulness, justice and independence. Despite these national and cultural differences, the fairy tales of both traditions share the common educational purpose of promoting goodness, honesty and moral responsibility. The findings substantiate the role of folk tales as an important linguocultural source reflecting national axiological worldviews and contributing to the moral development of younger generations.

Keywords: fairy tale, value concept, axiological opposition, good and evil, linguoculturology, national mentality, moral ideal, Uzbek fairy tales, English fairy tales, comparative analysis.

KIRISH

Xalq ertaklari millatning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari va qadriyatlar tizimini o'zida mujassam etgan muhim folklor janrlaridan biridir. Ertaklarda xalqning ezgulik va yovuzlik, adolat va adolatsizlik, halollik va nopoklik, mardlik va qo'rqoqlik, mehnatsevarlik va dangasalik haqidagi qarashlari obrazlar, voqealar, ramzlar hamda syujet qurilishi orqali badiiy ifodalanadi. Shu jihatdan ertak matnlari faqat ko'ngilochar yoki tarbiyaviy asar sifatida emas, balki muayyan xalqning milliy-madaniy tafakkuri va aksiologik olamini aks ettiruvchi lingvomadaniy manba sifatida ham alohida ahamiyatga ega.

Aksiologiya inson va jamiyat hayotida muhim hisoblangan qadriyatlarning mohiyati, ularning shakllanishi hamda baholanish mezonlarini o'rganuvchi ilmiy yo'nalishdir. Tilshunoslikda aksiologik yondashuv yordamida muayyan hodisa, xatti-harakat yoki insoniy fazilatga ijobiy yoxud salbiy baho beruvchi til birliklari tahlil qilinadi. Ertak diskursida bunday baholash ko'pincha qarama-qarshi tushunchalar, ya'ni aksiologik oppozitsiyalar asosida yuzaga chiqadi. Yaxshilik-yomonlik, adolat-zulm, saxiylilik-xasislik, sadoqat-xiyonat, mehnatsevarlik-dangasalik va donolik-nodonlik kabi oppozitsiyalar ertaklarning g'oyaviy mazmunini tashkil etib, ijobiy qahramonning salbiy obrazga nisbatan axloqiy ustunligini belgilaydi.

Ijobiy qadriyat konseptlari xalqning ideal inson haqidagi tasavvurlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ertaklarda halol, mehnatsevar, sabrli, saxiy, jasur, adolatparvar va sadoqatli qahramonlar turli sinovlarga duch keladi. Ularning sinovlarni muvaffaqiyatli yengib o'tishi nafaqat jismoniy kuch, balki aql-zakovat, ma'naviy poklik, insonparvarlik va qat'iyat bilan izohlanadi. Salbiy qahramonlar esa ochko'zlik, yolg'onchilik, hasad, xiyonat va zo'rvonlik kabi illatlarning timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Ertak yakunida ijobiy qahramonning mukofotlanishi, salbiy obrazning esa jazolanishi qadriyatlarning ierarxik tizimini shakllantirib, tinglovchi yoki kitobxonda yaxshilikning muqarrar g'alabasiga ishonch uyg'otadi.

O'zbek va ingliz xalq ertaklari turli tarixiy, geografik va ijtimoiy-madaniy sharoitlarda shakllangan bo'lsa-da, ularda umuminsoniy qadriyatlarni ulug'lashga qaratilgan umumiy g'oyalar mavjud. Har ikki xalq ertaklarida ezgulik, rostgo'ylik, adolat, jasorat va mehr-oqibat ijobiy baholanadi. Biroq mazkur qadriyatlarning badiiy ifodalanishi, qahramonlarning xatti-harakatlari, voqealar rivoji va axloqiy xulosalarda milliy o'ziga xosliklar kuzatiladi. O'zbek ertaklarida oila va jamoaga sadoqat, kattalarga hurmat, sabr-toqat, kamtarlik, mehmondo'stlik hamda mehnatsevarlik kabi qadriyatlar ko'proq ilgari suriladi. Ingliz ertaklarida esa shaxsiy tashabbus, mustaqil qaror qabul qilish, topqirlik, tadbirkorlik, individual jasorat va o'z manfaatlarini himoya qilish kabi fazilatlar faolroq namoyon bo'ladi.

Ertaklarda ijobiy qadriyatlarning aksiologik oppozitsiyalar asosida tasvirlanishi qahramonlar tizimi bilangina cheklanmaydi. Bunda voqea sodir bo'ladigan makon, sehrli buyumlar, hayvon obrazlari, raqamlar, ranglar va tabiat hodisalari ham muhim semantik vazifa bajaradi. Masalan, yorug'lik va zulmat, yuqori va quyi, o'z va begona, boylik va qashshoqlik singari qarama-qarshiliklar axloqiy baholash bilan uyg'unlashib, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurashni ramziy jihatdan kuchaytiradi. Shu sababli ertak matnlaridagi aksiologik oppozitsiyalarni o'rganish faqat leksik birliklarni aniqlashni emas, balki ularning kontekstual, obrazli, pragmatik va lingvomadaniy mazmunini ham tahlil qilishni talab etadi.

O'zbek va ingliz ertaklarida aks etgan qadriyatlar tizimini qiyosiy o'rganish ikki xalqning madaniy tafakkuridagi umumiylik va farqlarni aniqlash imkonini beradi. Bunday tahlil orqali bir xil ijobiy qadriyat turli madaniyatlarda qanday konseptualashtirilishi, qaysi obraz va syujet vositalari orqali ifodalanishi hamda unga qarama-qarshi salbiy tushunchaning qanday baholanishi yoritiladi. Masalan, adolat konsepti o'zbek ertaklarida ko'pincha mazlumning himoya

qilinishi, halol mehnatning qadrlanishi va zolimning jazolanishi orqali ifodalansa, ingliz ertaklarida qahramonning o'z huquqi va imkoniyatlari uchun faol kurashi bilan bog'lanishi mumkin. Bunday tafovutlar ertaklarning milliy mentalitet va ijtimoiy tajriba bilan uzviy aloqadorligini ko'rsatadi.

Mavzuning dolzarbligi globallashuv sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni saqlash, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish hamda turli madaniyatlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni anglash zarurati bilan belgilanadi. Zamonaviy axborot muhitida an'anaviy qadriyatlarning mazmuni va ularning avlodlardan avlodga yetkazilish mexanizmlarini o'rganish muhim ilmiy vazifaga aylanmoqda. Xalq ertaklari bu jarayonda qadriyatlarni sodda, obrazli va ta'sirchan shaklda ifodalovchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek va ingliz ertaklarida ijobiy qadriyat konseptlarining aksiologik oppozitsiyalar orqali ifodalanish xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Mazkur maqsad doirasida ertak matnlaridagi asosiy ijobiy va salbiy qadriyat konseptlari aniqlanadi, ularning leksik-semantik hamda obrazli ifoda vositalari o'rganiladi, qahramonlar xatti-harakatlariga berilgan axloqiy baholar tahlil qilinadi va ikki xalq ertaklarining milliy-madaniy xususiyatlari qiyoslanadi. Tadqiqot natijalari ertak diskursining aksiologik tabiatini chuqurroq anglash, o'zbek va ingliz xalqlarining qadriyatlar tizimidagi umumiy va milliy jihatlarni aniqlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbek va ingliz ertaklarida ijobiy qadriyat konseptlarining aksiologik oppozitsiyalar orqali ifodalanishini o'rganishda folklor poetikasi, ertak morfologiyasi, qahramonlar tipologiyasi, lingvomadaniyatshunoslik va aksiologik talqinlarga oid ilmiy qarashlar muhim nazariy asos vazifasini bajaradi. Mavjud tadqiqotlarni shartli ravishda uch yo'nalishga ajratish mumkin: o'zbek folklorshunosligida ertaklarning milliy poetikasi va konseptual xususiyatlarini o'rganish; rus folklorshunosligida ertak syujeti hamda qahramonlar tizimini strukturaviy-tarixiy tahlil qilish; Yevropa va Amerika ilmiy maktablarida ertakning shakli, madaniy va ijtimoiy-aksiologik vazifalarini tadqiq etish.

Komiljon Imomovning "O'zbek xalq nasri poetikasi" monografiyasi o'zbek xalq ertaklarining janriy, syujet-kompozitsion va obrazlar tizimini o'rganishda tayanch tadqiqotlardan biridir [1]. Olim xalq nasri janrlarini tasniflashda asarning voqelikka munosabati, syujet tuzilishi, obrazlar tizimi va an'anaviy ijro shakllarini asosiy mezon sifatida ko'rsatadi. Imomov ertaklarda xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlar, dunyoqarashi, orzu-intilishlari va ideal inson haqidagi tasavvurlari mujassamlashganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ertaklar yosh avlodga yaxshi xulq, axloqiy me'yor, donolik, tadbirkorlik va ma'naviy fazilatlarini yetkazuvchi tarbiyaviy vositadir. Ushbu qarashlar ijobiy qadriyat konseptlarini faqat alohida baholovchi so'zlar doirasida emas, balki qahramonning xatti-harakati, sinovlarni yengishi, yordamga munosabati va yakuniy mukofotlanishi bilan bog'liq yaxlit syujet tizimi sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Demak, o'zbek ertaklaridagi halollik-nopoklik, mehnatsevarlik-dangasalik, saxovat-xasislik va adolat-zulm oppozitsiyalari obrazlar tizimi hamda voqealar rivojiga singdirilgan holda namoyon bo'ladi.

Sayera Israilovanning ingliz va o'zbek ertak diskursida "sinov-shart" konseptining verballashuviga bag'ishlangan avtoreferati mavzuning bevosita qiyosiy-lingvomadaniy jihatini yoritadi [2]. Tadqiqotchi "sinov-shart" konsepti sinovchi, sinaluvchi va sinash obyekti o'rtasidagi munosabat asosida shakllanishini aniqlaydi. Bunda sinaluvchi odatda bosh qahramon bo'lsa, sinovchi ijobiy yordamchi yoki salbiy antagonist sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Qahramonning sinovdan muvaffaqiyatli o'tishi taxt, boylik, oilaviy baxt yoki sevgan insoniga erishish bilan yakunlanadi. Olimning kuzatishicha, ingliz ertaklarida sinov ko'proq qahramon yoki uning yaqinlariga tahdid, xavf va murakkab topshiriq shaklida beriladi; o'zbek ertaklarida esa shart, taqiq, cheklash va salbiy munosabat bilan bog'liq holatlar faolroq uchraydi. Bu xulosalar sinov motivining aksiologik vazifasini ochib beradi: qiyinchilik qahramondagi jasorat, sabr, sadoqat, topqirlik va insonparvarlikni yuzaga chiqaradi. Binobarin, jasorat-qo'rqqoqlik, sabr-irosasizlik, sadoqat-xiyonat va donolik-nodonlik kabi oppozitsiyalar sinov jarayonida badiiy jihatdan faollashadi.

Feruza Jalolova ingliz va o'zbek xalq ertaklaridagi "stepmother/o'gay ona" konseptini lingvomadaniy jihatdan chog'ishtirgan [3]. Tadqiqotda o'gay ona obrazi qarindoshlik munosabatlari, oilaviy ziddiyatlar, hissiy holatlar, ijtimoiy stereotiplar va milliy mentalitet bilan bog'liq konsept sifatida tahlil qilinadi. Muallifning materiallari o'zbek xalq ertaklarida o'gay ona ko'pincha bosh qahramonning fazilati va matonatini sinovdan o'tkazuvchi musibat timsoli bo'lib kelishini ko'rsatadi. Ingliz va o'zbek ertaklarini birlashtiruvchi jihat o'gay onaning ko'pincha yovuz, hasadgo'y yoki shafqatsiz antagonist sifatida baholanishidir. Shu bilan birga, obrazning tashqi tasvirida milliy farqlar mavjud: ingliz ertaklarida o'gay ona yosh va go'zal bo'lishi mumkin, o'zbek ertaklarida esa uning salbiy mohiyati ko'pincha yoshi o'tgan va xunuk qiyofa orqali ham kuchaytiriladi. Mazkur tadqiqot o'gay ona va o'gay farzand munosabatini shafqatsizlik-mehr, hasad-samimiyat, zulm-sabr, xiyonat-sadoqat oppozitsiyalari asosida tahlil qilish imkonini beradi. Salbiy obrazning tazyiqi ijobiy qahramonning axloqiy pokligi, chidamliligi va kechirimlilik fazilatlarini yanada ravshan ko'rsatadi.

Rus folklorshunosi Vladimir Proppning "Ertak morfologiyasi" nomli fundamental monografiyasi ertak syujetining barqaror funksiyalar asosida tashkil topishini ilmiy jihatdan asoslaydi [4]. Propp qahramonning sinovdan o'tkazilishi, sinovga munosabat bildirishi, sehrli vositaga ega bo'lishi, antagonist bilan kurashishi, g'alaba qozonishi, tan olinishi, soxta qahramonning fosh etilishi va yovuz kuchning jazolanishi kabi funksiyalarni ajratadi. Proppning asosiy maqsadi aksiologik baholash emas, balki ertakning morfologik tuzilishini aniqlashdan iborat. Shunga qaramay, uning funksional modeli qadriyatlar oppozitsiyasini o'rganish uchun muhim metodologik imkoniyat yaratadi. Masalan, "sinov-munosabat" funksiyasi qahramonning saxovatli yoki xasis, rahmdil yoki shafqatsiz ekanini ko'rsatsa, "tan olish-fosh qilish" funksiyasi haqiqiy qahramon bilan soxta qahramonni qarama-qarshi qo'yadi. Antagonistning jazolanishi esa ertakdagi salbiy qadriyatga yakuniy baho beradi. Demak, haqiqiylik-soxtalik, rahmdillik-shafqatsizlik, qahramonlik-xoinlik va mukofot-jazo oppozitsiyalari syujetning funksional tuzilishi orqali shakllanadi.

Eleazar Meletinskiyning "Sehrli ertak qahramoni: obrazning kelib chiqishi" monografiyasida ertak qahramonining ijtimoiy va tarixiy ildizlari tadqiq etiladi [5]. Olim ertak qahramonlarining ikki asosiy turini ajratadi: oliy nasab, go'zallik

va bahodirlik bilan ajralib turuvchi epik qahramon hamda dastlab hech qanday umid uyg'otmaydigan "quyi qahramon". Ikkinchi tipdagi qahramon kambag'al yetim, kamsitilgan kenja farzand, sodda yigit yoki tazyiqqa uchragan o'gay qiz ko'rinishida namoyon bo'ladi. U ijtimoiy mavqeyi past bo'lishiga qaramay, kutilmaganda qahramonlik ko'rsatadi yoki sehrli kuchlarning yordamiga sazovor bo'ladi. Meletinskiy yovuz aka-ukalar, o'gay ona va boshqa zolim obrazlarda ijtimoiy yovuzlikning real ko'rinishi mujassamlashishini, ezgu kuchlarning aralashuvi esa buzilgan adolatni qayta tiklashini ko'rsatadi. Olim talqinida demokratik qahramon xalq idealining ifodachisiga, uning baxtli taqdiri esa xalq orzusining ro'yobga chiqish vositasiga aylanadi. Bu nazariya e'taklardagi quyi-yuqori, kamsitilish-e'tirof, ijtimoiy zaiflik-ma'naviy ustunlik va zulm-adolat oppozitsiyalarining mohiyatini tushuntiradi.

Shveysariyalik folklorshunos Maks Lyuti "Yevropa xalq ertagi: shakl va tabiat" monografiyasida Yevropa e'taklarining o'ziga xos badiiy uslubini bir o'lchamlilik, chuqurlikning cheklanganligi, abstrakt uslub, yakkalanish va universal bog'liqlik kabi xususiyatlar asosida tavsiflaydi [6]. Lyuti nazariyasiga ko'ra, e'takdagi tabiiy va g'ayritabiiy dunyo qahramon uchun bir-biridan keskin ajralmaydi: qahramon sehrli voqeani oddiy hodisadek qabul qiladi. Ertak personajlarining murakkab psixologik kechinmalari batafsil tasvirlanmaydi; ularning tabiati, avvalo, harakati va syujetdagi vazifasi orqali ochiladi. Abstrakt uslub predmet, rang, makon va personajlarni aniq, yorqin hamda keskin konturlarda ifodalaydi. Ushbu nazariy qarashlardan kelib chiqib aytish mumkinki, e'takning bunday poetik shakli aksiologik oppozitsiyalarning ravshanligini kuchaytiradi. Qahramonlar murakkab psixologik o'tishlardan ko'ra ezgulik yoki yovuzlikning aniq tashuvchilari sifatida namoyon bo'ladi. Natijada oq-qora, ezgulik-yovuzlik, go'zallik-xunuklik, sadoqat-xiyonat kabi qarama-qarshiliklar qisqa, formulaviy va ta'sirchan shaklda ifodalanadi.

Jek Zaypsning "Muqarrar jozibali e'tak: janrning madaniy va ijtimoiy tarixi" monografiyasida e'taklarning shakllanishi, tarqalishi va turli madaniy muhitlarga moslashishi ijtimoiy-madaniy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi [7]. Olim e'tak dunyosini real hayotdagi adolatsizlikka qarshi yaratilgan muqobil dunyo sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, real hayotda axloqiy talablar har doim ham bajarilmaydi, e'takda esa voqealar yaxshilik, adolat va xalqning axloqiy kutishlariga muvofiq tartibga solinadi. Shu sababli e'takning "axloqiy urishi" jamiyatda nima yetishmayotganini va olam qanday o'zgartirilishi kerakligini ko'rsatadi. Zayps e'taklarni insonlarga mavjud ijtimoiy xulq-atvorga muqobil harakat modellarini taqdim etuvchi, axloqiy tajribani saqlovchi va o'zgarish umidini shakllantiruvchi janr sifatida baholaydi. Bu yondashuvda mavjud adolatsizlik-orzu qilingan adolat, itoat-qarshilik, umidsizlik-umid va ijtimoiy zulm-axloqiy yangilanish oppozitsiyalari markaziy o'rin tutadi.

Ko'rib chiqilgan ilmiy qarashlar bir-birini mazmunan to'ldiradi. K. Imomov e'takdagi milliy poetika va tarbiyaviy mazmunni, S. Israilova sinov orqali qadriyatlarining yuzaga chiqishini, F. Jalolova oilaviy antagonist obrazi bilan bog'liq lingvomadaniy stereotiplarni yoritadi. V. Propp aksiologik mazmun joylashadigan funksional syujet modelini, E. Meletinskiy ijobiy qahramonning ijtimoiy-tarixiy va demokratik mohiyatini, M. Lyuti qadriyatlar qutblanishini kuchaytiradigan e'tak uslubini, J. Zayps esa e'takning axloqiy va ijtimoiy o'zgartiruvchilik vazifasini asoslab beradi.

Shu bilan birga, tahlil qilingan tadqiqotlarda o'zbek va ingliz e'taklaridagi ijobiy qadriyat konseptlari yagona aksiologik oppozitsiyalar tizimi asosida kompleks ravishda tasniflanmagan. Ayrim ishlarda e'tak poetikasi, boshqalarida muayyan konsept, qahramon tipi, syujet funksiyasi yoki madaniy vazifa alohida o'rganilgan. Shuning uchun tadqiqotda yaxshilik-yomonlik, adolat-adolatsizlik, halollik-alldov, mehnatsevarlik-dangasalik, saxiylik-xasislik, jasorat-qo'rqqoqlik va sadoqat-xiyonat oppozitsiyalarini bir xil mezonlar asosida qiyoslash maqsadga muvofiq. Bunda konseptlarning leksik nominatsiyasi, qahramonlar tizimidagi ifodasi, sinov va konflikt jarayonidagi faollashuvi hamda e'tak yakunidagi mukofot yoki jazo bilan bog'liq baholanishi asosiy tahlil darajalarini tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot o'zbek va ingliz xalq e'taklarida ijobiy qadriyat konseptlarining aksiologik oppozitsiyalar orqali ifodalanishini aniqlashga qaratilgan qiyosiy-lingvokulturologik yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqot materiali sifatida o'zbek va ingliz folkloriga mansub sehrli, maishiy hamda hayvonlar haqidagi e'taklarning ilmiy nashrlarda chop etilgan namunalari tanlab olindi. E'taklarni saralashda ularni yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik, halollik va yolg'onchilik, mehnatsevarlik va dangasalik, saxiylik va xasislik, jasorat va qo'rqqoqlik, sadoqat va xiyonat kabi aksiologik qarama-qarshiliklarning mavjudligi asosiy mezon sifatida belgilandi.

Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tipologik, kontekstual, komponent tahlil, konseptual tahlil va lingvokulturologik tahlil metodlaridan kompleks foydalanildi. Tavsifiy metod orqali e'tak matnlarida uchraydigan ijobiy va salbiy baholovchi birliklar, qahramonlarning axloqiy sifatleri hamda voqealarga berilgan muallifona va xalqona baholar aniqlandi. Kontekstual tahlil yordamida qadriyat konseptlarining alohida so'z yoki ibora doirasidagina emas, balki qahramonning xatti-harakati, nutqi, boshqa obrazlar bilan munosabati va syujet yakunidagi natija bilan bog'liq holda yuzaga chiqishi o'rganildi.

Konseptual tahlil jarayonida har bir ijobiy qadriyatning mazmuniy tuzilishi, asosiy belgilari va unga qarama-qarshi qo'yilgan salbiy konseptlar aniqlandi. Masalan, yaxshilik konsepti mehribonlik, yordam ko'rsatish, kechirimlilik va insonparvarlik belgilari orqali, yomonlik esa zo'ravonlik, hasad, alldov va zarar yetkazish bilan bog'liq harakatlar orqali tavsiflandi. Shuningdek, adolat konseptining haqiqatning tiklanishi, aybsiz qahramonning mukofotlanishi va zolim obrazning jazolanishi vositasida namoyon bo'lishiga alohida e'tibor qaratildi.

Qiyosiy-tipologik metod o'zbek va ingliz e'taklaridagi aksiologik oppozitsiyalarning umumiy va milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlashga xizmat qildi. Har ikki xalq e'taklarida uchraydigan qadriyatlar ularning ifoda vositalari, qahramonlar tizimi, sinov motivlari, mukofot va jazo shakllari hamda axloqiy xulosalari bo'yicha qiyoslandi. O'zbek e'taklarida jamoaviylik, kattalarga hurmat, sabr-toqat, mehmondo'stlik, oilaga sadoqat va halol mehnatning ifodalanishi, ingliz e'taklarida esa shaxsiy tashabbus, mustaqillik, topqirlik, individual jasorat va o'z huquqini himoya qilish bilan bog'liq belgilar tahlil qilindi.

Lingvokulturologik tahlil orqali qadriyat konseptlarining xalqning milliy dunyoqarashi, urf-odatlarini, axloqiy me'yorlari va ideal inson haqidagi tasavvurlari bilan bog'liqligi ochib berildi. Ertaklardagi ota-ona va farzand, aka-uka, o'gay ona va o'gay farzand, hukmdor va oddiy xalq, kambag'al va boy obrazlari o'rtasidagi munosabatlar milliy aksiologik qarashlarning ifodasi sifatida o'rganildi. Sehrli yordamchi, dono chol, pari, ajdarho, dev, jodugar va boshqa an'anaviy obrazlarning ijobiy yoki salbiy qadriyatlarni shakllantirishdagi vazifasi ham hisobga olindi.

Tahlil uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda ertak matnlaridan baholovchi mazmunga ega leksik birliklar, obrazlar va vaziyatlar ajratib olindi. Ikkinchi bosqichda ular yaxshilik-yomonlik, adolat-adolatsizlik, halollik-aldov, mehnatsevarlik-dangasalik, saxiylik-xasislik, jasorat-qo'rqqoqlik va sadoqat-xiyonat kabi asosiy aksiologik oppozitsiyalar bo'yicha guruhlashtirildi. Uchinchi bosqichda aniqlangan oppozitsiyalar o'zbek va ingliz ertaklarida namoyon bo'lish usuli, semantik mazmuni va milliy-madaniy xususiyatlari jihatidan qiyoslandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida qadriyat konseptlari faqat alohida til birliklari asosida emas, balki ertakning umumiy syujeti, qahramonlar o'rtasidagi ziddiyat, sinov motivi va yakuniy axloqiy xulosa bilan uyg'un holda baholandi. Bunday metodologik yondashuv o'zbek va ingliz ertaklaridagi ijobiy qadriyatlarining aksiologik oppozitsiyalar orqali ifodalanish qonuniyatlarini aniqlash, ularning umuminsoniy va milliy xususiyatlarini tizimli ravishda yoritish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbek va ingliz ertaklarida ijobiy qadriyat konseptlarining aksiologik oppozitsiyalar orqali ifodalanishini o'rganish shuni ko'rsatdiki, har ikki madaniyat ertaklarida axloqiy baholash, avvalo, qahramonlarning xatti-harakati, nutqi, sinovlarga munosabati va syujet yakunidagi taqdiri orqali amalga oshiriladi. Tahlilda o'zbek ertaklaridan "Zumrad va Qimmat", "Uch og'a-ini botirlar", "Egri va To'g'ri" hamda "Oltin tarvuz", ingliz tilidagi ertaklar korpusidan esa "Cinderella", "Jack and the Beanstalk", "The Story of the Three Little Pigs" va "Beauty and the Beast" kabi namunalar asos qilib olindi. Ushbu ertaklarda yaxshilik-yomonlik, halollik-aldov, mehnatsevarlik-dangasalik, saxiylik-ochko'zlik, jasorat-qo'rqqoqlik, sadoqat-xiyonat hamda ichki go'zallik-tashqi ko'rinish kabi oppozitsiyalar yetakchi aksiologik model sifatida namoyon bo'ladi.

Yaxshilik-yomonlik oppozitsiyasining badiiy ifodasi

"Zumrad va Qimmat" ertagida yaxshilik va yomonlik oppozitsiyasi ikki qizning xarakteri, mehnatga munosabati va tabiat bilan aloqasi orqali ochiladi. Zumrad odobli, muloyim, aqlli va mehnatsevar qiz sifatida tasvirlansa, Qimmat ishyoqmas, injiq va dimog'dor obraz sifatida unga qarama-qarshi qo'yiladi. Bu qarama-qarshilik faqat muallif yoki ertakchi tavsifi bilan chegaralanmaydi. Zumrad o'tganida gullarning unga bosh egishi, bulbullarning uni olqishlashi, Qimmat kelganida esa gullarning yumilib qolishi tabiatning ham axloqiy baholovchi kuch sifatida ishtirok etishini ko'rsatadi. Demak, o'zbek ertagida ijobiy qahramonning ezguligi insonlararo munosabat bilangina emas, balki tabiat bilan uyg'unlik orqali ham tasdiqlanadi.

"Cinderella" ertagida ham bosh qahramonning mehribonligi va sabr-toqati o'gay ona hamda o'gay opa-singillarning shafqatsizligi bilan qarama-qarshi qo'yiladi. Cinderella onasining yaxshi va mehribon bo'lish haqidagi nasihatiga amal qiladi, og'ir mehnat, kamsitish va haqoratlarga qaramay, axloqiy sifatlarini yo'qotmaydi. O'gay opa-singillar esa tashqi jihatdan chiroyli, biroq ichki dunyosi yovuz obrazlar sifatida tavsiflanadi. Bu yerda tashqi go'zallik va ichki tubanlik o'rtasidagi nomuvofiqlik alohida aksiologik ahamiyat kasb etadi. Qahramonning yakunda tan olinishi va baxtga erishishi yaxshilikning ijtimoiy e'tirof bilan yakunlanishini anglatadi.

Ikki ertakning umumiy tomoni shundaki, ijobiy qahramon dastlab oilaviy muhitda kamsitiladi, og'ir mehnatga majbur qilinadi va adolatsizlikka duch keladi. Shunga qaramay, u yovuzlikka yovuzlik bilan javob bermaydi. Farqli jihat shundaki, "Zumrad va Qimmat"da yaxshilik ko'proq odob, mehnatsevarlik, tabiatga mehr va kattalarga hurmat bilan bog'lansa, "Cinderella"da sabr, shaxsiy poklik va ijtimoiy tan olinish motivlari faolroq namoyon bo'ladi.

Halollik-aldov va to'g'rilik-egrilik oppozitsiyasi

"Egri va To'g'ri" ertagining nomidayoq asosiy aksiologik oppozitsiya to'g'ridan-to'g'ri ifodalangan. To'g'riboy va Egriboy ismlari oddiy antroponim emas, balki qahramonlarning axloqiy tabiatini oldindan belgilovchi baholovchi birliklardir. To'g'riboy yo'lda uchragan Egriboyga rahm qilib, o'z otini beradi. Egriboy esa do'stlik ahdigga xiyonat qilib, otni olib qochadi. Shunday qilib, rahmdillik va xiyonat bir vaziyatning o'zida qarama-qarshi namoyon bo'ladi.

Ertak davomida To'g'riboy o'ziga ma'lum bo'lgan sirlardan faqat shaxsiy boylik orttirish uchun foydalanmaydi. U cho'ponni bo'ri xavfidan qutqaradi, yilqilarni yo'lbarsdan himoya qiladi va podshohning kasal qizini davolaydi. Podshoh unga hokimlikni taklif qilganida esa mansabdan voz kechib, o'z mehnati bilan kun kechirishni afzal ko'radi. Mazkur epizodlarda halollik konsepti rostgo'ylikdan kengroq mazmun kasb etib, yordam ko'rsatish, kamtarlik, halol mehnat va mansabparastlikdan voz kechish semalarini ham qamrab oladi. Egriboyning xiyonati esa uning keyingi muvaffaqiyatsizligi bilan bog'lanadi. Shu tariqa ertakda xiyonatning salbiy oqibati va to'g'rilikning barqaror mukofoti ko'rsatiladi.

Tahlil natijasida o'zbek ertaklarida qahramon ismlarining o'zi ham aksiologik tasnif vositasiga aylanishi aniqlandi. "Egri", "To'g'ri", "Zumrad" va "Qimmat" nomlari qahramonlarning syujetdagi o'rnini belgilashda muhim semantik vazifa bajaradi. Ingliz ertaklarida ham "Beauty" nomi bevosita ijobiy bahoni ifodalaydi, "Cinderella" nomi esa qahramonning kul va o'choq yonidagi kamsitilgan holatidan kelib chiqib, uning dastlabki ijtimoiy mavqeyini ko'rsatadi. Shunday qilib, har ikki ertak an'anasida nomlash qahramonning aksiologik maqomini ifodalovchi muhim vosita hisoblanadi.

Mehnatsevarlik-dangasalik va puxtalik-beparvolik oppozitsiyasi

Mehnatsevarlik o'zbek ertaklarida yetakchi ijobiy qadriyatlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. "Uch og'a-ini botirlar" ertagida ota o'g'illariga to'g'ri bo'lish, maqtancholikdan saqlanish va dangasalik qilmaslikni vasiyat qiladi. Mazkur nasihat ertakning keyingi voqealari uchun axloqiy dastur vazifasini bajaradi. Uchala o'g'ilning safarga chiqishi,

tunda navbat bilan qo'riqchilik qilishi va xavf-xatarga qarshi kurashishi baxtga erishish harakat, intizom va mas'uliyat bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

"Oltin tarvuz" ertagida mehnat konsepti dehqonning yerga muntazam ishlov berishi, jarohatlangan laylakka g'amxo'rlik qilishi va halol hayot kechirishi bilan ifodalanadi. Qahramonning keyinchalik mukofotlanishi faqat tasodifiy omad emas, balki uning mehnati, mehribonligi va beg'araz yordami uchun berilgan aksiologik javob sifatida talqin qilinadi. Ertakda mehnatsevarlik–dangasalik oppozitsiyasi saxiylik–ochko'zlik qarama-qarshiligi bilan birlashib, moddiy farovonlikning axloqiy asosini belgilaydi.

"The Story of the Three Little Pigs" ertagida mehnatsevarlik bevosita nasihat shaklida emas, balki qurilgan uylarning sifati va qahramonlar tanlovining oqibati orqali namoyon bo'ladi. Birinchi cho'chqacha somondan, ikkinchisi yengil shox-shabbdan uy quradi va ularning uylari bo'ri hujumiga bardosh bera olmaydi. Uchinchi cho'chqacha esa g'ishtdan mustahkam uy quradi. Bo'ri bu uyni qulatolmaydi, uchinchi cho'chqacha esa oldindan rejalashtirish va topqirlik orqali xavfdan saqlanadi. Bunda asosiy aksiologik qarama-qarshilik oddiy mehnatsevarlik–dangasalikdan ko'ra kengroq bo'lib, **puxta tayyorgarlik–shoshqaloqlik, mas'uliyat–beparvolik va uzoqni ko'ra bilish–bir lahzalik qulaylik** oppozitsiyalarini yuzaga chiqaradi.

O'zbek ertaklarida mehnat ko'pincha yer, hunar, chorva, oilaviy farovonlik va jamoaga foyda keltirish bilan bog'lanadi. Ingliz ertagida esa mehnat shaxsiy xavfsizlikni ta'minlash, mustaqil yashash va muammoni individual ravishda hal qilish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Har ikki holatda ham ijobiy natijaga erishish qahramonning faoliyati va mas'uliyatli tanloviga bog'liq.

Jasorat–qo'rqqoqlik oppozitsiyasi

"Uch og'a-ini botirlar" ertagida jasorat qahramonlarning asosiy belgisi sifatida shakllantiriladi. Ota farzandlarini qo'rqqoq bo'lmaslik ruhida tarbiyalaganini ta'kidlaydi. Safar davomida To'ng'ich botirning sherga, O'rtancha botirning ajdarga, Kenja botirning esa o'g'rilarga qarshi kurashishi jasoratning jismoniy kuch bilangina emas, balki mas'uliyat va boshqalarni himoya qilish bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi. Botirlar o'z qahramonliklarini oshkor qilishga shoshilmaydi. Shu sababli jasorat konsepti kamtarlik konsepti bilan birikib, maqtanchoqlikka qarama-qarshi qo'yiladi.

"Jack and the Beanstalk" ertagida jasorat va tashabbuskorlik boshqacha shaklda ifodalanadi. Jack kambag'allik holatidan chiqish uchun sehrli loviyalar imkoniyatidan foydalanadi, ulkan loviya poyasiga chiqadi va dev yashaydigan xavfli makonga bir necha bor boradi. Qahramon tezkor qaror qabul qilish, xavfli vaziyatdan chiqib ketish va devni yengish qobiliyatini namoyon qiladi. Shu ma'noda Jack ingliz ertaklaridagi faol, tavakkalchi va shaxsiy imkoniyatiga ishonuvchi qahramon tipini ifodalaydi.

Biroq mazkur ertakda aksiologik baholash bir ma'noli emas. Jack devning oltini, oltin tuxum qo'yuvchi tovug'i va sehrli arfasini olib ketadi. Syujet uni g'olib sifatida taqdim etsa-da, uning harakatlari halollik nuqtayi nazaridan bahsli ko'rinadi. Bu holat ingliz ertaklarida ayrim ijobiy qadriyatlar qat'iy axloqiy oppozitsiya emas, balki murakkab va ziddiyatli shaklda namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Jackning jasorati va topqirligi ijobiy baholanadi, biroq uning maqsadga erishish vositalari halollik konsepti bilan to'liq muvofiqlashmaydi. Demak, ertak qahramoni bir vaqtning o'zida ijobiy va bahsli xususiyatlarning tashuvchisi bo'lishi mumkin.

Sadoqat–xiyonat va fidoyilik–xudbinlik oppozitsiyasi

"Beauty and the Beast" ertagida Beauty otasining hayotini saqlab qolish uchun uning o'rniga mahluqning saroyiga borishga rozilik bildiradi. Uning qarori majburlash natijasi emas, balki ongli fidoyilik sifatida tasvirlanadi. Beauty o'z manfaatidan voz kechib, otasining taqdirini ustun qo'yadi. Uning opa-singillari esa oilaning qashshoqlashuvidan norozi bo'lib, qimmatbaho sovg'alarni istaydi va Beautyga hasad qiladi. Natijada fidoyilik–xudbinlik, kamtarlik–manfaatparastlik va sadoqat–hasad oppozitsiyalari yuzaga keladi.

Ertakning keyingi rivojida Beauty mahluqning tashqi qiyofasidan tashqaridagi ichki yaxshilikni anglaydi. Uning samimiy munosabati mahluqning insoniy qiyofasiga qaytishiga sabab bo'ladi. Shu orqali ertakda tashqi xunuklik yovuzlik belgisi emasligi, haqiqiy go'zallik esa mehr, sadoqat va insonni tushuna bilish bilan belgilanilishi ko'rsatiladi. Demak, **ichki go'zallik–tashqi ko'rinish** oppozitsiyasi an'anaviy go'zal–xunuk qarama-qarshiligini qayta baholaydi. Mahluq tashqi jihatdan qo'rqqinchli bo'lsa-da, axloqiy jihatdan o'zgarish va yaxshilikka qodir.

O'zbek ertaklarida sadoqat ko'pincha ota-ona nasihatiga amal qilish, do'stlik ahdigga sodiq qolish, oilani va jamoani himoya qilish orqali ifodalanadi. Ingliz tilidagi tahlil qilingan ertaklarda esa sadoqat qahramonning shaxsiy tanlovi, muhabbati va boshqa inson uchun o'z manfaatidan kechishi bilan bog'lanadi. Har ikki madaniyatda sadoqat yuqori qadriyat sifatida e'tirof etilsa-da, uning ijtimoiy yo'nalishi turlicha: o'zbek ertaklarida u jamoaviy va oilaviy burchga, ingliz ertaklarida esa individual axloqiy tanlovga yaqinroq turadi.

Aksiologik oppozitsiyalarning syujetdagi vazifasi

Tahlil natijalari ertaklardagi aksiologik oppozitsiyalar statik tavsif emas, balki syujetni harakatga keltiruvchi mexanizm ekanini ko'rsatdi. Dastlab ijobiy qahramonning qadri jamiyat yoki oila tomonidan tan olinmaydi. Zumrad, Cinderella va To'g'riboy kamsitiladi yoki xiyonatga duch keladi; uch og'a-ini va Jack esa xavfli sinovlar oldida qoladi. Keyingi bosqichda qahramonning axloqiy yoki amaliy sifati sinovdan o'tkaziladi. Yakunda esa dastlabki baholash o'zgaradi: kamsitilgan qahramon e'tirof etiladi, yovuz yoki xiyonatkor obraz fosh bo'ladi, mehnat va jasorat mukofotlanadi.

1-jadval. O'zbek va ingliz ertaklaridagi asosiy aksiologik oppozitsiyalarning qiyosiy ko'rinishi

Aksiologik oppozitsiya	O'zbek ertaklaridagi ifodasi	Ingliz ertaklaridagi ifodasi	Yetakchi natija
Yaxshilik–	Zumradning odobi va	Cinderella mehribonligi o'gay	Yaxshilik sinovlardan

yomonlik	mehribonligi Qimmat hamda o'gay onaning yovuzligiga qarshi qo'yiladi	ona va opa-singillarning shafqatsizligiga qarshi qo'yiladi	so'ng e'tirof etiladi
Halollik-aldov	To'g'riboyning to'g'riligi Egriboyning xiyonati orqali ochiladi	Ayrim ertaklarda rostlik ijobiy baholansa, Jack obrazida baholash murakkablashadi	Halollik barqaror qadriyat, biroq ayrim syujetlarda vositalar ziddiyatli
Mehnatsevarlik-dangasalik	Halol mehnat, hunar, dehqonchilik va mas'uliyat ulug'lanadi	Puxta qurilish, oldindan tayyorgarlik va mustaqil harakat qadrlanadi	Natiqa qahramonning faoliyati va tanloviga bog'lanadi
Jasorat-qo'rqqoqlik	Jasorat jamoani himoya qilish va kamtarlik bilan uyg'unlashadi	Jasorat tavakkal, tashabbus va shaxsiy imkoniyatni namoyon qilish shaklida beriladi	O'zbek ertaklarida ijtimoiy burch, ingliz ertaklarida individual tashabbus ustun
Saxiylik-ochko'zlik	Beg'araz yordam va g'amxo'rlik mukofotlanadi	Kamtar talablar ochko'zlik va moddiy manfaatparastlikka qarshi qo'yiladi	Boylarning axloqiy qiymati undan qanday foydalanish bilan belgilanadi
Sadoqat-xiyonat	Ota-ona, do'st va jamoaga sadoqat yetakchi o'rin tutadi	Shaxsiy tanlov, muhabbat va fidoyilik asosiy mezon bo'ladi	Sadoqat ikki madaniyatda ham yuksak qadriyat sifatida namoyon bo'ladi
Ichki go'zallik-tashqi ko'rinish	Ijobiy qiyofa ko'pincha axloqiy poklik bilan uyg'unlashadi	Tashqi xunuklik ichki yovuzlikni anglatmasligi ko'rsatiladi	Ingliz ertaklarida tashqi va ichki sifatlar o'rtasidagi ziddiyat kuchliroq

Umumiy natijalarga ko'ra, o'zbek va ingliz ertaklarida ijobiy qadriyatlar salbiy tushunchalardan ajratilgan holda emas, aynan ular bilan qarama-qarshi munosabatda konseptualashtiriladi. Halollik aldovga, mehnatsevarlik dangasalik va beparvolikka, jasorat qo'rqqoqlikka, saxiylik ochko'zlikka, sadoqat esa xiyonatga qarshi qo'yilgandagina to'liq aksiologik mazmun kasb etadi.

O'zbek ertaklarida ijobiy qadriyatlarning jamoaviy yo'nalishi kuchli bo'lib, yaxshi qahramon ota-ona nasihatiga amal qilishi, halol mehnat qilishi, boshqalarga yordam berishi, kamtar bo'lishi va jamoa manfaatini himoya qilishi bilan ajralib turadi. Ingliz ertaklarida esa qahramonning mustaqil qaror qabul qilishi, tashabbus ko'rsatishi, xavfqa qarshi yakka kurashishi, topqirlik va shaxsiy tanlov asosida o'z taqdirini o'zgartirishi faolroq ifodalanadi.

Shu bilan birga, har ikki ertak an'anasini mutlaq jamoaviylik yoki individualizm doirasida cheklash mumkin emas. O'zbek ertaklarida ham shaxsiy jasorat va topqirlik, ingliz ertaklarida esa oilaga sadoqat, fidoyilik va boshqalarga mehr ko'rsatish qadriyatlari mavjud. Farq mazkur konseptlarning mavjud yoki mavjud emasligida emas, balki ularning syujet markaziga joylashtirilish darajasi va milliy-madaniy mazmunida namoyon bo'ladi.

Demak, ertaklardagi aksiologik oppozitsiyalar ikki asosiy vazifani bajaradi. Birinchidan, ular qahramonlarni axloqiy jihatdan tasniflab, ijobiy va salbiy obrazlar o'rtasidagi chegarani belgilaydi. Ikkinchidan, xalqning ideal inson haqidagi tasavvurini shakllantiradi. O'zbek ertaklaridagi ideal qahramon odobli, mehnatsevar, kamtar, sadoqatli va jamoaga foydali inson bo'lsa, ingliz ertaklaridagi ideal qahramon jasur, faol, mustaqil, topqir va axloqiy tanlov qilishga qodir shaxs sifatida gavdalanadi. Har ikki madaniyatda esa yaxshilik, adolat, sadoqat va insonparvarlik umuminsoniy qadriyatlar sifatida ertakning g'oyaviy markazini tashkil etadi.

XULOSA

O'zbek va ingliz xalq ertaklarida ijobiy qadriyat konseptlarining aksiologik oppozitsiyalar orqali ifodalanishini qiyosiy o'rganish natijasida ertak diskursining axloqiy-baholovchi tabiati aniqlandi. Har ikki xalq ertaklarida yaxshilik-yomonlik, adolat-adolatsizlik, halollik-aldov, mehnatsevarlik-dangasalik, saxiylik-ochko'zlik, jasorat-qo'rqqoqlik, sadoqat-xiyonat kabi qarama-qarshiliklar syujet va obrazlar tizimini shakllantiruvchi asosiy aksiologik birliklar sifatida namoyon bo'ladi. Ijobiy qadriyatlar salbiy tushunchalardan ajratilgan holda emas, balki ular bilan ziddiyatli munosabatda o'zining to'liq mazmunini kasb etadi.

Tahlil qilingan ertaklarda aksiologik oppozitsiyalar qahramonlarning tashqi va ichki sifatleri, nutqi, xatti-harakati, sinovlarga munosabati hamda yakuniy taqdiri orqali ochib beriladi. Ijobiy qahramon odatda dastlab kamsitiladi, qiyinchilikka duch keladi yoki murakkab sinovdan o'tkaziladi. Uning sabr-toqati, halolligi, mehnatsevarligi, jasorati va insonparvarligi voqealar rivoji davomida namoyon bo'lib, syujet yakunida mukofot, e'tirof, baxt yoki farovonlik bilan baholanadi. Salbiy qahramonning yolg'onchiligi, shafqatsizligi, ochko'zligi, xiyonati va dangasaligi esa fosh etilib, jazo yoki mag'lubiyatga olib keladi. Shu tariqa mukofot va jazo ertakdagi qadriyatlar tizimiga berilgan yakuniy aksiologik baho vazifasini bajaradi.

O'zbek ertaklarida ijobiy qadriyatlar ko'proq jamoaviy va oilaviy munosabatlar doirasida namoyon bo'lishi kuzatildi. Ota-ona nasihatiga amal qilish, kattalarni hurmat qilish, halol mehnat qilish, kamtarlik, sabr-toqat, boshqalarga yordam berish va jamoa manfaatini himoya qilish ideal qahramonning muhim belgilarini tashkil etadi. "Zumrad va

Qimmat", "Egri va To'g'ri", "Uch og'a-ini botirlar" va "Oltin tarvuz" kabi ertaklarda yaxshi insonning fazilatlarini mehnat, odob, saxovat, to'g'rilik va ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'un holda tasvirlanadi.

Ingliz ertaklarida esa shaxsiy tashabbus, mustaqil qaror qabul qilish, topqirlik, tavakkalchilik va o'z taqdirini o'zgartirishga intilish faolroq ifodalanadi. "Cinderella", "Jack and the Beanstalk", "The Story of the Three Little Pigs" hamda "Beauty and the Beast" ertaklarida qahramonning individual tanlovi, xavfga qarshi kurashi, mustaqil faoliyati va ichki axloqiy fazilatlarini muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, tashqi ko'rinish va ichki go'zallik o'rtasidagi ziddiyat, shaxsiy fidoyilik hamda puxta rejalashtirish ingliz ertaklarining aksiologik mazmunini boyitadi.

Shu bilan birga, o'zbek ertaklarini faqat jamoaviylik, ingliz ertaklarini esa faqat individualizm bilan tavsiflash to'liq ilmiy xulosa bermaydi. Har ikki an'anada jasorat, sadoqat, mehribonlik, adolat, halollik va insonparvarlik umuminsoniy qadriyatlar sifatida mavjud. Milliy farq ushbu qadriyatlarning mohiyatida emas, balki ularni namoyon etuvchi qahramonlar tipi, sinov shakllari, ijtimoiy munosabatlar va syujet yechimlarida ko'rinadi. O'zbek ertaklarida qahramonning fazilatlarini ko'proq oila va jamiyat oldidagi burch bilan baholansa, ingliz ertaklarida uning shaxsiy tanlovi, faoliyati va tashabbuskorligi asosiy mezonlarga aylanadi.

Tadqiqot natijasida ertaklardagi aksiologik oppozitsiyalar uch asosiy vazifani bajarishi aniqlandi. Birinchidan, ular ijobiy va salbiy qahramonlarni axloqiy jihatdan farqlaydi. Ikkinchidan, syujetdagi konflikt va sinovlarning rivojlanishini ta'minlaydi. Uchinchidan, xalqning ideal inson, adolatli jamiyat va munosib xulq-atvor haqidagi tasavvurlarini badiiy shaklda ifodalaydi. Aksiologik qarama-qarshiliklarning izchil qo'llanishi ertakning tarbiyaviy ta'sirini kuchaytirib, tinglovchi yoki kitobxonda yaxshilikka intilish, yomonlikdan tiyilish va axloqiy tanlov uchun mas'uliyat hissini shakllantiradi.

Umuman, o'zbek va ingliz ertaklari milliy madaniyatning qadriyatlar tizimini saqlovchi va avloddan avlodga yetkazuvchi muhim lingvomadaniy manbadir. Ularni aksiologik oppozitsiyalar asosida qiyosiy o'rganish ikki xalqning dunyoqarashidagi umumiylik va milliy o'ziga xosliklarni aniqlash, ertak obrazlarining axloqiy mazmunini chuqurroq tushuntirish hamda folklor matnlarining ma'naviy-tarbiyaviy imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Imomov, K. O'zbek xalq nasri poetikasi / K. Imomov. – Toshkent: Fan, 2008. – 252 b. – Elektron resurs. – URL: <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/yangi-kitoblar/komiljon-imomov-o-zbek-xalq-nasri-poetikasi>
2. Israilova, S. T. Ingliz va o'zbek tillari ertak diskursida "sinov" konsepti verballashuvining lingvomadaniy xususiyatlari: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati: 10.00.06 / Sayera Tashpulat qizi Israilova. – Toshkent, 2023. – 59 b. – Elektron resurs. – URL: <https://library.ziyouz.com/book/129524>
3. Jalolova, F. N. "O'gay ona" konseptining lingvomadaniy talqini: ingliz va o'zbek xalq ertaklari misolida: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati / Feruza Normurodovna Jalolova. – Toshkent, 2023. – 28 b. – Elektron resurs. – URL: <https://library.ziyouz.com/book/129934>
4. Propp, V. Morphology of the Folktale / V. Propp; translated by L. Scott; edited by L. A. Wagner. – 2nd ed. – Austin: University of Texas Press, 1968. – 184 p. – ISBN 978-0-292-78376-8. – Electronic resource. – URL: <https://utpress.utexas.edu/9780292783768/>
5. Мелетинский, Е. М. Герой волшебной сказки: происхождение образа / Е. М. Мелетинский; Академия наук СССР, Институт мировой литературы имени А. М. Горького, Институт востоковедения. – Москва: Издательство восточной литературы, 1958. – 264 с. – Электронный ресурс. – URL: https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_006339141/
6. Lüthi, M. The European Folktale: Form and Nature / M. Lüthi; translated by J. D. Niles; foreword by D. Ben-Amos. – Bloomington: Indiana University Press, 1986. – 172 p. – ISBN 978-0-253-20393-9. – Electronic resource. – URL: <https://iupress.org/9780253203939/the-european-folktale/>
7. Zipes, J. The Irresistible Fairy Tale: The Cultural and Social History of a Genre / J. Zipes. – Princeton: Princeton University Press, 2012. – 256 p. – ISBN 978-0-691-15338-4. – Electronic resource. – URL: <https://www.jstor.org/stable/j.ctt7sknm>